



ABDULLA AVLONIY MA'NAVIY MEROSINING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Pardayeva K.U

JDPU Pedagogika kafedrası katta o'qituvchisi, PhD

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Abdulla Avloniy asarlarida yoshlarga ta'lim-tarbiya berish, ularda axloqiy fazilatlarni shakllantirish yo'llari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim, tarbiya, odob, an'ana, ilm, aql, sabr, toqat, sabot, matonat, fazilat*

Аннотация. *В данной статье освещены пути воспитания молодежи и формирования у нее нравственных качеств в произведениях Абдуллы Авлони.*

Ключевые слова: *Образование, воспитание, этикет, традиция, знание, ум, терпение, терпимость, настойчивость, добродетель.*

Annotation. *This article highlights the ways of educating young people and forming their moral qualities in the works of Abdulla Avloni.*

Key words: *Education, upbringing, etiquette, tradition, knowledge, mind, patience, tolerance, perseverance, perseverance, virtue.*

Ko'hna tarix sarhadlarida ta'lim-tarbiyaviy jarayonlar tadriji insoniyat tafakkurining eng ulkan yutug'i sanaladi. Shaxs tarbiyasi insonning o'zi kabi qadimiy va keng qamrovlidir. Shu sababli, har tomonlama etuk shaxsni tarbiyalash insoniyatning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz jamiyat ravnaqi, millat barqarorligini tayin etuvchi ma'rifat va madaniyatni yosh avlodga o'rgatish, insonni komillikka etaklash yo'llari, qonun-qoidalarini izlaganlar.

Abdulla Avloniy talqinicha, "Pedagogika bola tarbiyasining fani, demakdir. Dars ila tarbiya ... ikkisi jon ila tan kabidir. Dars oluvchi –biluvchi, tarbiya oluvchi – amal qiluvchidir". Mutafakkir ushbu o'rinda pedagogika faniga qisqa va lo'nda ta'rif berib, ta'lim bilan tarbiyani esa jon bilan tanga o'xshatadi, ularni bir-biridan ajratib tushunish mumkin emasligini yorqin ifodalab beradi. Avloniyning ta'kidlashicha, tarbiyani yoshlikdan berish nihoyatda zarur. Bolaga avvalo, kichik yoshdan boshlab, ota-ona tarbiya beradi, keyin tarbiya bilan butun jamoatchilik shug'ullanadi, chunki bunda inson taqdiri hal etiladi deydi.

Demak, pedagogikaning bosh masalasi tarbiya sanaladi. Tarbiya jarayonida esa bolaning ongi, his-tuyg'ulari shakllanadi. Eng muhimi ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan va ijtimoiy munosabatlarga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi.



Ta'lim esa, shaxs takomilining turli bosqichlarida bilimni tartibli bayon qilish jarayoni bo'lib, muayyan ko'nikma va malakalarni singdirish, o'quvchining ongi va xulqiga ta'sir etish, aqlini, tafakkurini, idrokini, dunyoqarishini, e'tiqodini va bilish faolligini rivojlantirishdir. Bunda bevosita tarbiya maqsadlari ham amalga oshirib boriladi.

Nafaqat bugungi zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimida, balki Sharq pedagogikasi tarixida shaxsning ruhiy-ma'naviy tarbiyasi birlamchi o'rinni egallagan bo'lib, bu o'z navbatida, jamiyat taraqqiyotining muhim asosi hisoblangan. Shu jihatdan ham, millat va jamiyat rivoji uchun qayg'urgan har bir ma'rifat rahnamosi, avvalo, shaxsda yuksak insoniy fazilatlarni tarkib toptirishga, ruhiy-axloqiy tarbiyalashga katta e'tibor qaratishgan. Bu borada Abdulla Avloniyning ijtimoiy-pedagogik faoliyati ham nihoyatda muhim o'rin tutadi.

Bilamizki, tarbiya inson tug'ilganidan boshlanib to umri poyoniga qadar davom etadigan ijtimoiy-ma'naviy jarayon hisoblanadi. Bugungi zamonaviy ilmfan esa komil inson tarbiyasi ilk homila paytidan, islomiy manbalar esa, hattoki, uning onasini tanlashdan boshlanishini chuqur tushuntirmoqda. Shunga ko'ra esa, tarbiyaning asosi 4 bosqichdan, ya'ni homila davri, uy, maktabgacha ta'lim va umumiy o'tra ta'lim bosqichlaridan tashkil topganligi o'z isbotini topmoqda

Avloniy ham o'z qarashlarida tarbiyani keng doirada tushuntiradi. Uni birgina axloq bilan chegaralab qo'ymaydi. Mukammal tarbiyaga asosan "Sog'tanda – sog'aql" degan hikmat mohiyati nuqtai nazaridan yondashadi. Tarbiya jarayonlarida, birinchi navbatda, bolaning sog'lig'i haqida qayg'urish lozimligini uqtiradi: "Badanning salomat, quvvatli bo'lmo'g'i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o'qumoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdur".

Shu o'rinda, Avloniy masalaning falsafiy asosiga ko'chadi. Jism bilan ruhning uzviy birligi haqida gap ochadi: "Badan tarbiyasining fikr tarbiyasiga ham yordami bordur. Jism ila ruh ikkisi bir choponning o'ng ila tersi kapidur. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponni ustini qo'yub, astarini yuvub, ovora bo'lmoq kapidurki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur". Yana boshqa o'rinlarda ham shu kabi "badan elak kabi ko'zluqdur" degan tushuncha asosida o'zining ruh va tan salomatligi uyg'unligidagi tarbiyaviy qarashlarini ilgari suradi.

Adibning qarashlarida Navoiyning inson haqidagi mashhur "inson – xilqat toji" nuqtai nazari (konsepsiyasi)ning ta'siri yaqqol sezilib turadi. Uning fikricha ham aql faqat insongagina nasib etgan sifatdir, jahonning ziynati oqil insonlardir.



Yuqorida Avloniy aqlning ilm va tajriba soyasida kamol topishiga ishora qilgan edi. Darhaqiqat, bular uzviy tushunchalardir. Ilm ham "insonlarning madori hayoti, rahbari najoti", boringki, "dunyoning izzati. U inson uchun g'oyat oliy va muqaddas bir fazilat".

Muallif bu fazilatlarni shunchaki qayd etmaydi, uning aniq hayotiy, amaliy ahamiyati ustida ham to'xtalib o'tadi. Ilmning insonni kamolotga etkazishda bosh omil ekanligini atroflicha dalillashga harakat qiladi.

Kuzatishlar ko'rsatadiki, "Turkiy guliston yoxud axloq" kitobining birinchi sahifasidan to so'nggi sahifasigacha Avloniyning yuksak insonparvarlik g'oyalari, axloqiy-tarbiyaviy qarashlari, didaktik tushunchalari ifodalangan. Adib komil shaxs tarbiyasi orqali mukammal jamiyat barpo etishga erishishning ustuvor jihatlarini asoslaydi. U butun ilmiy-ijodiy, ijtimoiy-pedagogik faoliyati davomida hamisha xalq, jamiyat manfaatini ko'zlab, egulik va yaxshilik ulashishni o'zining muqaddas burchi sifatida biladi va o'z umri, bilim va zakovati, moddiy-ma'naviy boyliklarini ushbu sharafl yolda xizmat qilishga sarflaydi.

Tahlillardan ko'rinadiki, bugungi o'zbek pedagogikasi, didaktikasini Abdulla Avloniyning samarali mehnatlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Alloma o'zining pedagogik qarashlarida ham, badiiy-publitsistik asarlarida ham, avvalo, insonning ruhiy-ma'naviy kamolotini tarbiyalashni ustuvor deb biladi. Insoniy fazilatlar, odamiylik sifatlarini ulug'laydi, yaxshilik, ezgulikni, ilm-ma'rifatni targ'ib qiladi. Adib tomonidan ta'lim-tarbiya, odob-axloq borasida ilgari surilgan bu kabi ulug'vor g'oyalar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlagan holda zamonaviy o'zbek pedagogikasi taraqqiyoti uchun munosib xizmat qilib kelmoqda. Ushbu xususiyatlariga ko'ra adib ijodiy merosi ta'lim bosqichlarida uzviylik va uzluksizlik asosida o'qitiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Авлоний А. Танланган асарлар. // Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Т, 1995.
2. Pardayeva, K. (2019). European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).
3. Pardayeva K. Educational significance of the works of abdulla avloni European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 12, 2020
4. Pardayeva K. Improvement of students' enlightening ideas through the works of Abdullah Avloni . European international journal of multidisciplinary research and management studies issn: 2750-8587 doi: <https://doi.org/10.55640/eijmrms-02-05-03>



5. Pardayeva K. Educational significance of the works of Abdulla Avloni
European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8
No. 12, 2020

6. Pardayeva, K. (2020). Jadid ma'rifati and Abdulla Avloni's social and
pedagogical activity. Архив научных публикаций jsri